

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saldumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ulsenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali - lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarini qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi - ko'rsatilgan sohalariga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-unl.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and Its Linguistic Interpretation...17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in
Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation
in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The Image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry
(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and
Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol
of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids' Dynasty.....132

TARIX. MANBASHUNOSLIK
HISTORY. SOURCE STUDIES

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi

Shamsiddin Kamoliddin¹

Abstrakt

Maqolada XI – X asrlarda Xuroson va Movarounnahrda hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi masalasi ko'rib chiqilgan. Sho'rolar davri tarixshunosligida Somoniylar Abbosiylarga bo'ysunmaganlar va o'z mustaqil davlatiga asos solganlar deb qabul qilingan edi. Biroq XI – X asrlarga oid arab tilidagi manbalar, shuningdek, o'sha davr tangalaridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Somoniylar arab xalifaligidan mustaqil bo'lishga intilmaganlar va o'zlarini Abbosiylarning Xuroson va Movarounnahrdaagi voliyari deb hisoblaganlar.

Tayanch so'zlar: Arab xalifaligi, Abbosiylar, Xuroson, Movarounnahr, Buxoro, Somoniylar, davlatchilik.

Boshlanma

XX asrning ikkinchi yarmida tojik olimi B.G'ofurov boshchiligidagi sovet sharqshunoslari siyosiy maqsadlarda IX – X asrlarda Xuroson va Movarounnahrda mavjud bo'lgan "Somoniylar davlati" haqida iddaolarni ilgari surdilar. Keyinchalik bu g'oya Moskva ko'magida Somoniylarni "tojik xalqining ajdodlari" deb e'lon qilgan tojik olimlari orasida rivojlantirilib, ularning hukmronligi "tojik davlatchiligi tarixi"ga kiritildi [Hermatov 1977]. Bu fikrni avvaliga eronlik olimlar, keyin esa butun dunyodagi eronparast sharqshunolar qizg'in qo'llab-quvvatladilar. O'shandan beri bu fikr jahon sharqshunosligida mustahkam o'rin oldi, va 50 – 60 yil ilgari sovet olimlarining siyosiy maqsadlarda qilgan bu va bunga o'xshash ko'plab soxta xulosalari bugungi kungacha dolzarbligicha qolmoqda.

Oxirgi tadqiqotlar Somoniylarning tojiklarga, umuman,

¹Shamsiddin Kamoliddin Sirojiddin o'g'li – tarix fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

E-pochta: shamskamol@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2469-8717

Iqtibos uchun: Kamoliddin, Sh. S. 2023. "Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 132 – 159.

eronliklarga hech qanday aloqasi yo'q degan xulosaga kelishga imkon beradi. Amir Mansur ibn Nuh tomonidan Buxoroda 358/968-69-yilda chiqarilgan kumush dirhamda tasvirlangan hukmdor suratining Sosoniylar portret ikonografiyasi bilan hech qanday umumiyliigi yo'q, bu esa Somoniylarning islomgacha bo'lgan ajdodlari mutlaqo o'zga madaniyat va etnik muhitga tegishli bo'lganligiga ishora qiladi [Treadwell 1999, 9 – 10; 2003, 328; 2011, 4, 6]. Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Somoniylar G'arbiy Turk xoqonligining oliy hukmdorlari oilasiga mansub To'xoristondagi turk yabg'ularining avlodlari bo'lganlar [Камолитдин 2008, 43 – 70; 2009, 113 – 119; 2019, 99 – 125].

Aniqlashni talab qiladigan ikkinchi masala N. Negmatovning "Somoniylar davlati" nomli kitobida [Hernandez 1977] ilgari surilgan hamda Eron va ba'zi G'arb olimlari [Treadwell 1991] tomonidan qo'llab-quvvatlangan Somoniylar "davlatchiligi" masalasidir.

Ma'lumki, tarix faniga old har qanday tadqiqot, avvalambor, manbalarga, va imkon qadar birlamchi manbalarga tayanishi kerak. Qolgan gaplarning hammasi esa taxmin va uydirmalar yoki tarixchilar tomonidan siyosatchilarning buyurtmasiga binoan uydirilgan soxtalashtirishlardan iborat. O'rta asr arab manbashunosi sifatida men to'liq mas'uliyat bilan ta'kidlaymanki, Somoniylar hukmronligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan IX – X asrlarning hech bir manbasida ularga nisbatan *ad-dawla*, ya'ni "davlat" atamasi qo'llanilmagan. Hamma manbalarda ularning hukmronligi *imara* (الإمارة) – "hukumat", "hokimlik" va *al-vilaya* (الولاية) – "viloyat", "noiblik" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Ko'p ma'noga ega bo'lgan "ad-dawla" (الدولة) atamasi o'sha davr manbalarida faqat Arab xalifaligi va Abbosiylar sulolasiga nisbatan qo'llangan.

"Davlatchilik" tushunchasi

Agar bu masalaga huquqiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, IX – X asrlarda O'rta Osiyoda hech qanday mustaqil davlat bo'lmagan. "Davlatchilik" atamasining o'zi huquqiy tushuncha bo'lgani uchun uning ta'rifi ham huquqiy me'yorlarga asoslanishi kerak. Qonunchilik nuqtayi nazaridan, Somoniylar boshqaruv tizimini ham, ularning hukmronligini ham mustaqil davlat deb hisoblab bo'lmaydi. O'rta asrlarda islom jamiyatida hamisha avvalo din, keyin davlat, keyin esa madaniyat turgan [Илларль 1959, 24]. Islomda davlatning asosi payg'ambarimiz Muhammad (ﷺ)-ning ilohiy nozil qilingan qonunlari bo'lib, uning asosiy qoidalari shariatda bayon etilgan. Islomda din va hokimiyat bir-biridan

ajralmas tushunchalardir [Rosental 1973, 12]. Shuning uchun islom davlatining qurilishi musulmon jamiyatining huquqiy me'yorlari-ning shakllanishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan [Ugur 1988, 59]. Islom jamiyatida har doim siyosat din bilan uyg'unlashib ketgan va undan ajralmas deb hisoblangan [Ugur 1988, 58, 60]. XI asrning mashhur musulmon huquqshunosi Abu-l-Hasan Ali ibn Muhammad ibn Habib al-Movardiy o'zining "Nasihat al-muluk" ("Podshohlarga nasihatlar") asarida bu masalaga alohida bob ajratib, uni "Din davlat asosidir" (الدين اساس الملك) deb atagan [al-Mavardi, 67]¹.

Garchi IX – X asrlarning oxirlarida Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat sezilarli darajada zaiflashgan va mintaqalarda ichki boshqaruv masalalarida deyarli mustaqil bo'lgan mahalliy ma'muriyatlarning nufuzi ortgan bo'lsa ham, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, Somoniylar ham, faqat rasman bo'lsa ham Bag'dod xalifalariga bo'ysunganlar va ularning oliy hokimiyatini tan olganlar [Oliver 1887, 98]. Huquq nuqtayi nazaridan, o'sha davrdagi huquqiy me'yorlar esa shariat tomonidan belgilangan, ular u yoki bu hududda xalifalarning hokimi bo'lib, faqat ma'muriy boshqaruv va moliyaviy-iqtisodiy ishlarni yuritishda xalifalar ularga bergan keng huquq va vakolatlarga ega bo'lganlar. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy jihatdan Somoniylar faqat Bag'dod xalifalari tomonidan ma'lum vakolat va huquqlarga ega bo'lgan mahalliy ma'muriy, iqtisodiy va moliyaviy o'zini o'zi boshqaruvchi hokimiyat vakillari edilar.

Rasmiy, ya'ni huquq nuqtayi nazaridan Somoniylar hech qachon siyosiy, demak, huquqiy mustaqillikka ega bo'lmaganlar. Musulmon jamiyatidagi barcha xatti-harakatlarning qonuniyligini o'zida mujassam etgan shariatga ko'ra, shuningdek, xalqaro huquqqa ko'ra, Xuroson va Movarounnahr Abbosiylar xalifaligining ajralmas qismi hisoblangan, Somoniylar esa Abbosiylarning bu hududlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimlari bo'lganlar. Ular o'z boshqaruvida, eng avvalo, xalifalarning ko'rsatmalariga amal qilganlar va o'z hokimiyatlarining oxirigacha bu tamoyildan chetga chiqmaganlar [Faruzani 1381, 6].

Xuroson hukmdorlariga bag'ishlangan "Zayn al-axbor" asarida Somoniylar (jami 10 ta hukmdor) 76 kishidan iborat bu viloyat hokimlarining umumiy ro'yxatida 61 – 69 o'rinlarni egal-

¹ Bu qat'iy qoida, boshqa yana ko'p narsalar kabi, islomda zardushtiylikdan o'zlashtirilgan. Masalan, at-Tabariy zardushtiylilik ruhontylaridan biri (mobed) ning Marv hokimi (marzbon) Mohavayhga degan quyidagi so'zlarini keltiradi: "Din va podshoh hokimiyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri faqat bir-biri tufayli saqlanib turishi mumkin..." [at-Tabari I, 2874].

laydilar [Гардизи 22 – 23, 62 – 90]. Bag'dod hukmdorlari nazarida viloyat hukmdorlari, shu jumladan, Somoniylar ham, garchi o'z hududlarida avvalgi arab hokimlari kabi butunlay mustaqil bo'lsalar ham, bor-yo'g'i *voliy* (والي) yoki *amir* (امير), ya'ni Xuroson hokimlari [al-Ishtakhi, 306, 311] va *'omil* (عامل), ya'ni soliq yig'uvchilar bo'lganlar [Бартольд 1963, 285]. Fath qilingan viloyatlarning hokimlari va lashkarboshilari xalifaning o'zi tomonidan in'om qilingan maxsus sharaflı libos kiyishlari majburiy edi, va bu qoidaga barcha mahalliy hukmdorlar, shu jumladan, Somoniylar ham amal qilganlar [Хилал ас-Саби, 67 – 68].

Musulmon ruhoniylari va g'oziy qo'shinlari

Arab manbalarida Abbosiylar xalifaligining yemirilishi haqida hech qanday ma'lumot yo'q, ularda faqat uning avvalgi kuch-qudrati, farovonligi va mustahkam qonunchiligining yo'qolishi, avvalgi buyukligining pasayishi va tartib-qoidalarining o'zgarishi haqida so'z boradi [Хилал ас-Саби, 23 – 24, 27]. Biroq shunga qaramay, Abbosiylar xalifasining hokimiyati hamon kuchli edi, va ayrim viloyatlarning hukmdorlari (masalan, Fotimiylar, ispan Umaviylari, Bahrayn Qarmatiylari) ni hisobga olmaganda, deyarli butun musulmon olami o'zini Abbosiylarning tobesi deb tan olar edi [Михайлова 1990, 30 – 31], va barcha musulmonlar boshlig'i – xalifaning ma'naviy-siyosiy hokimiyatiga bo'ysunish qiyofasini saqlab turar edi [Наумкин, Плотровский 1981, 5].

Shu o'rinda mantiqiy bir savol tug'iladi: agar xalifalar yetarli darajada harbiy kuchga ega bo'lmagan bo'lsa, ular mintaqalarda, xususan, Xuroson va Movarounnahrda o'z hokimiyatini amalga oshirish uchun qanday dastaklarga ega edilar? **Birinchidan**, xalifalikning ma'muriy boshqaruv tizimida davlatning barcha quyi hududlarida hukmronlikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan maxsus bo'lim mavjud edi [Jo'rayev 2003, 61]. 207/822-23-yilda Tohir ibn al-Husayn juma xutbasida xalifa al-Ma'munni zikr qilishdan o'zini tiyishga jur'at etganida, u darhol Abbosiylarga sodiq odamlar tomonidan zaharlangan [Ibn al-Athir VI, 156].

Ikkinchidan, Abbosiylar xalifaligi teokratik, ya'ni din hukmronlik qilgan davlat bo'lib, unda hokimiyat kuchga emas, balki e'tiqodga asoslangan edi. O'rta asrlardagi islom jamiyatida musulmon ruhoniylari ulkan hokimiyatga ega bo'lib, ular barcha jarayonlarni, jumladan, hukmdorlarning xatti-harakatlarini ham nazorat qilganlar. Shariat me'yoriaridan ozgina bo'lsa ham chetga chiqish bir zumda faqihlar va qozilarning munosabat bildirishi

va qarshiliklariga uchrar edi, ularning ko'pchiligi esa Xuroson va Movarounnahrda ko'chib kelgan arablar va forslar, ya'ni Abbosiylar xalifalariga sodiq odamlar edi.

Ilk Somoniylar o'ta dindor, hadislar bilimdoni va ularni rivoyat qiluvchi kishilar edi [as-Sam'ani VII, 12 – 13]. Ular o'z hokimiyatida, bir tomondan, dehqonlarga, ikkinchi tomondan esa, ruhoniylarga tayanganlar. Somoniylar Abbosiylar tomonidan olib borilgan mintaqaga islom dinini joriy etish siyosatini boshqargan holda, "kofir" turklar, ya'ni islomni inkor etib, o'z ajdodlarining diniga e'tiqod qiluvchi turklar va so'g'dlarga qarshi "muqaddas" urushlar olib borganlar. Masalan, 225/839-40-yilda Nuh ibn Asad Isfijob shahrini egallab [as-Sam'ani VII: 13], uning atrofiga qal'a devori qurdirdi [al-Beladsori, 422]. Manbalarda Nuh ibn Asadning Shoshga qilgan harbiy yurishi ham qayd etilgan [al-Nasafi 1991, 122].

Nasr ibn Ahmad 300 ming kishilik qo'shin bilan Shovg'ar shahriga yurish qilgan [al-Istakhri, 291; Ibn Haukal, 467]. 280/893-94-yilda Ismoil ibn Ahmad Tarozi shahrini bosib olib, u yerdagi katta cherkovni jome masjidiga aylantirdi [Macoudi VIII, 144, 321; Hapmaxi 80; Ibn al-Athir VII, 185, 216]. Boshqa tomondan, Somoniylar turklar orasida islom dinini faol targ'ib qilganlar. Bu harakatlar natijasida IX – X asrlarda Sirdaryoning quyi oqimidagi turkiy tilli aholi garchi bu hududlar hali Somoniylar mulki tarkibiga kirmagan bo'lsa ham islom diniga e'tiqod qilishgan [Бартольд 1963a, 240]. Borob, Kanjeh va Shosh shaharlari oralig'idagi keng yaylovlarda yashovchi ko'chmanchi turklarning mingga yaqin xonadonlari yoppasiga islom dinini qabul qilgan [Hudud al-'Alam 119; Ibn Haukal 511].

Manbalarda islomni qabul qilgan Xorazm o'g'uz turklari o'zlarini "turkman" deb atay boshlaganliklari va hali islomni qabul qilmagan o'z qabiladoshlariga qarshi shafqatsiz urush olib borganliklari qayd etilgan [Marvazi 18]. Sirdaryoning quyi oqimidagi Sutkand shahrida islom dinini qabul qilib, kofir turklarga qarshi urushlar olib borgan o'g'uzlar va qarluqlar yashagan [Ibn Haukal 511]. Taxminan 310/922-23-yilda O'g'uz hukmdorining shaxsan o'zi islomni qabul qilib, Makka va Madinaga haj ziyoratini ado etadi, keyin u Bag'dodga kelib, xalifa al-Muqtadir bi-lloh bilan uchrashadi [Macoudi II 16].

349/960-61-yilda, taxmin qilinishicha, Yettisuvda [Бартольд 1963a, 46; 1963a, 125] ko'chmanchi turklarning 200 mingga yaqin uylari islom dinini qabul qiladi [Ibn al-Athir VIII, 210]. Somoniylar

amiri Nuh ibn Nasr islom dinini yoyish maqsadida Sharqiy Turkistonning qarluq hukmdorlari bilan oilaviy munosabatlarga kirishib, ularning malikasiga uylangan [Ibn az-Zubayr 150; Minorsky 1955, 4-5; Bosworth 1969, 8-9]. Keyinchalik Qoraxoniylarning islom dinini qabul qilishlarida ham Somoniylar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganlar [ал-Карши, 103-104].

Uchinchidan, IX – X asrning birinchi yarmida Samarqand, Shosh va Farg'onada g'ayridin kofirlarga qarshi "muqaddas urush" (*jihad* جهاد) olib borgan ko'plab "islom uchun kurashuvchilar" (*al-g'oziy* الغزوي)ning qo'shinlari joylashgan edi. Ruhoniylar tomonidan boshqarilgan bu qo'shnlarga "ko'ngillilar" (*al-mutawwi'un* المتطوعون), ya'ni butun musulmon olamidan kelgan dindor musulmonlar, asosan arablar va forslar oqib kelar edi. Bu g'oziy qo'shinlarining to'planadigan yeri Samarqand edi. Bu qo'shinlar ribotlarda joylashgan bo'lib, doimiy ravishda yangi kelgan ko'ngillilar bilan to'lib turar edi.² Nasr ibn Ahmad davrida g'oziyarning qo'shinlari 40 ming otliqdan iborat edi. Somoniylar bu qo'shinlar bilan yaqin aloqada bo'lganlar, ularga katta ahamiyat berganlar va halok bo'lgan g'oziyarning dafn marosimlarida shaxsan ishtirok etib, janozasini o'qiganlar [al-Nasafi 1991, 91].

Shunday qilib, ruhoniylarning yuksak nufuzi va qudrati, ruhoniylar tomonidan boshqariladigan musulmonlarning "islom uchun kurashuvchilari" qurolli kuchlarining mavjudligi, shuningdek, Somoniylarning o'zlarining chuqur dindorligi shariatning barcha talablarining so'zsiz bajarilishini, shu jumladan, hokimiyat baland-pastlariga rioya qilishni ta'minlar edi. "Muqaddas" urushlar tugagandan so'ng, muntazam qo'shin tuzildi, uning asosini turk g'ulomlari, ya'ni oliy tabaqaning harbiy qullari tashkil etdi, ular bolalikdan o'z hukmdorlariga va umumislomiy qadriyatlarga g'oyat sadoqat ruhida tarbiyalangan edilar. Somoniylarning barcha lashkarboshilari o'ta dindor kishilar bo'lib, ulardan ba'zilar, masalan, Foiq al-Xossa hadislarini o'rganish va rivoyat qilish bilan

²Bu qat'iy qolda, boshqa yana ko'p narsalar kabi, islomda zardushtiylilikdan o'zlashtirilgan. Masalan, at-Tabariy zardushtiylilik ruhoniylaridan biri (*mored*) ning Marv hokimi (*marzbān*) Mo'navayitga degan quyidagi so'zlarini keltiradi: "Din va podshoh hokimiyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri faqat bir biri tufayli saqlanib turishi mumkin..." [at-Tabari I, 2874].

²Manbalarda g'oziy qo'shinlarida xizmat qilgan, al-G'oziy va al-Mutavvi'y nisblariga ega bo'lgan bir qancha shaxslarning ismlari keltirilgan [al-Nasafi 1999: 281 (№ 452); 329 (№ 533); 339 (№ 551); 386 (№ 647); 400 (№ 679); 405 (№ 690); 495 (№ 861); 569 (№ 1000)]. Qadimgi qabristonlarda arabcha yozuvlar bitilgan ko'plab qabr toshlari topilgan, ular orasida tarkibida al-G'oziy nisbasi bo'lgan ismlar ham bor [Paul 1993, 80 – 83].

shug'ullangan [al-Nasafi 1999, 674 – 675 (№ 1187)].

Somoniylar maqomining tashqi belgilari

Har qanday ma'muriy-boshqaruv tizimi o'ziga xos alomatlariga ko'ra "mustaqil davlat" deb ta'riflanishi uchun bir qancha talablarga javob berishi kerak, xususan, o'z nomidan tangalar chiqarishi, davlat chegarasiga ega bo'lishi, mustaqil tashqi aloqalarga ega bo'lishi va hokazo. Somoniylar Xuroson va Movarounnahr hukmdorlari bo'lganlarida, ularda bu alomatlardan hech biri yo'q edi.

Birinchidan, Somoniylarning hukmronligi Bag'dod xalifalari tomonidan chiqarilgan maxsus yorliq (*manshur*) mavjud bo'lgandagina qonuniy hisoblangan. Ismoil ibn Ahmad 287/900-yilda Safforiy Amr ibn al-Laysni mag'lub etib, amalda Xurosonni zabt etganda, xalifadan unga egalik qilish huquqini beruvchi to'g'risida yorliq oldi [Ibn al-Athir VII, 198 – 199]. Bu harakat ramziy ma'noga ega edi – bu bilan Somoniylarning Bag'dod hukmdorlariga qaramligi ta'kidlangan edi. 295/907-908-yilda Ismoil ibn Ahmad vafotidan keyin uning o'g'li Nasr taxtga o'tirganda, u ham xalifa al-Muktafiydan tayinlanish to'g'risidagi maxsus yorliq oldi [Ibn al-Athir VIII, 2]. Boshqa barcha Somoniylar ham xuddi shunday qilib tayinlangan va tasdiqlangan. Bu sulola vakillaridan birortasining hukmronligi, agar u Bag'dod xalifasidan olingan tegishli yorliqqa ega bo'lmasa, qonuniy deb hisoblanmagan. Somoniy amirlarining hech biri bu mavjud holatga hech qachon qarshi chiqmagan va o'zida mavjud bo'lganidan ortiqroq biror narsaga da'vo qilmagan. Ismoil ibn Ahmad, aniqrog'i uning ukasi Nasr ibn Ahmad Somoniylarning Xuroson va Safforiylardan mustaqilligini rasman e'lon qilgan, ammo bu mustaqillik Abbosiylardan emas edi, Somoniylar tomonidan zarb qilingan tangalar ham bundan dalolat beradi [Oliver 1887, 93, 128-135; Якубовский 1946, 112]. Ibn al-Asir bunga alohida izoh berib, "261/874-75-yilda Nasr ibn Ahmad Movarounnahrni xalifa tomonidan boshqara boshlagan bo'lsa, ilgari u Xuroson hukmdorlari, ya'ni Tohiriylar tomonidan hukmronlik qilgan edi", deb yozgan [Ibn al-Athir VII, 111]. Ibn Haukal ham shunday yozadi: "Buxoro hukmdorlari [Tohiriylar sulolasi hukmronligi] tugaguniga qadar Xurosondan mustaqil bo'lishga intilgan edilar" [Ibn Haukal, 491]. Binobarin, Somoniylarni, eng uzog'i bilan, islom xalifaligi tarkibidagi Xuroson va Movarounaronning yarim mustaqil hukmdorlari sulolasi deb atash to'g'riroq bo'ladi [Oliver 1887, 98], ular faqat qisman moliyaviy mustaqillikka ega bo'lganlar, ammo hech qachon siyosiy mustaqillikka ega bo'lmaganlar [Sourdel 1996, 728].

Ikkinchidan, har bir xutba, ya'ni Somoniylarga bo'ysunuvchi hududlardagi masjidlarda juma namozidan oldin o'qiladigan va'zlarda payg'ambarimiz Muhammad (ﷺ) madh etilgandan keyin Bag'dod xalifasini ulug'lash vojib bo'lgan [Хилал ас-Саби 91; Ibn al-Athir IX, 61], va qonun bilan belgilangan [Rosental 1973, 2]. Abbosiylar xalifaligida mintaqa hukmdorlari uchun rasmiy farqlar bo'lmagan. Boshqa hokimlar singari ular haqiga ham xalifaning salomatligi uchun duo o'qilgandan keyin uchun duo qilingan [Меу 1966, 25]. Xutba ham xuddi Qur'oni Karim suralari va hadislar kabi faqat arab tilida o'qilishi lozim edi [Sultanov 2000, 3]. Bu qat'iy qoidaga barcha mahalliy hukmdorlar, shu jumladan, Somoniylar ham rioya qilganlar.

Uchinchidan, ilk Somoniylar faqat mis tangalar ishlab chiqarishgan, keyinchalik bu tangalar ichki bozorda pul muomalasining asosini tashkil qilgan [Давидович 1954, 38-39; Добровольский, Кочнев 1982, 190-198]. Ulardan tashqari, ichki bozor uchun Somoniylar islomgacha muomalada bo'lgan Buxor-Xudot tangalari shaklidagi *musayyabiy*, *muhammadiy* va *g'itrifiy* nomli "qora" dirhamlarni ham zarb qilinganlar. Bu tangalar metallning sifatiga ko'ra bir-biridan farq qilib, ularning tarkibidagi kumush va misning nisbati har xil bo'lgan. Somoniylar tashqi savdo uchun *ismoiliy* nomli kumush tangalari ham zarb qilinganlar. Bu tangalarning ko'rinishi umumiy xalifalik tangalari andozasida bo'lib, ularda davlat boshlig'i sifatida xalifalarni ko'rsatish majburiy bo'lgan. Somoniy amirlari esa tobe sifatida undan keyin tilga olingan [Давидович 1979, 126-130; Lowick 1975, 139, 140, 141, 144; 150, 151; Lowick 1984, 345 – 350]. Bu ham qonun bilan belgilangan edi [Rosental 1973, 2]. Shuningdek, Somoniylar juda oz miqdorda yuqori sifatli oltin dinorlar ham zarb etganlar, ammo ular pul sifatida muomalada bo'lmagan, balki tovar hisoblanib, og'irligi bo'yicha qabul qilingan, ya'ni xazina va jahon puli vazifasini bajargan. Oltin tangalarda ham davlat boshlig'i sifatida xalifalar ko'rsatilgan [Наршахи 44-45; Давидович 1966, 105-110; 1978, 24]. Bundan tashqari, Somoniylarga qarashli yerlarda nafaqat ularning tangalari, balki xalifalikning boshqa hukmron sulolalari, masalan, Abbosiylar (Iroq), Tuluniylar (Misr), Buvayhiylar (Eron), Ziyoriylar (Jurjon), Alaviylar (Tabariston) va boshqalarning oltin dinorlari, kumush dirhamlari va hatto mis falslari ham muomalada bo'lgan [Ерназарова, Кочнев 1977, 150-151]. IX - X asrlarda Somoniylardan oldin Xurosonda hukmronlik qilgan arab hokimlarining tangalari ham muomalada bo'lgan. Boshqacha aytganda, Somoniylarga

qarashli hududlarda pul muomalasi alohida va mustaqil bo'lmagan, balki Abbosiylar xalifaligi pul tizimining bir qismini tashkil qilgan.

To'rtinchidan, Somoniylarga qarashli yerlarning g'arbdagi va janubdagi chegaralari davlat chegaralari emas, balki Abbosiylar xalifaligi doirasidagi ma'muriy chegaralar edi. X asr geograflarining ta'rifiga ko'ra, shimoli-sharqda islom dinining tarqalishi chegaralari Somoniylarga qarashli yerlarning chegaralariga to'g'ri kelgan [Бартольд 1963a, 125]. Ularning Qarluk va Uyg'ur xoqonliklari, Tibet va Hindiston bilan chegaradosh bo'lgan yerlari, ya'ni shimoliy va sharqiy chegaralariga kelsak, ular Abbosiylar xalifaligining tashqi davlat chegaralariga to'g'ri kelgan [Faruzani 1381, 7]. IX - X asrlarga mansub manbalarda Abbosiylar xalifaligining barcha hududlari sharqda Farg'ona va Xurosonning chekka chegaralaridan g'arbdan Tanjargacha 3700 farsax va Kavkazdan Jiddagacha 600 farsax masofaga cho'zilgan. Bu yerlarning hammasi mo'minlar amirining amalini (ya'ni saltanatini) tashkil etuvchi yaxlit bir butun davlat hisoblangan [Macoudi IV, 38]. Bu hududlar *mamlakat al-islom*, ya'ni "islom mamlakati" deb atalgan va ichki siyosiy chegaralarga ega bo'lmagan [al-Istakhri 11, 12; Ibn Haukal 10, 71, 524]. Har bir musulmon bu hududlarda hech qanday xavf-xatarga uchramasdan erkin harakatlana olgan. Olimlar va izlanuvchilar "ilm izlab" hech qanday to'sqinliksiz Buxoro va Samarqanddan Bag'dod, Damashq yoki al-Mag'ribga, va aksincha, Andalusiya va al-Mag'ribdan Balx, Samarqand yoki Buxoroga bemaol kelishlari mumkin bo'lgan. IX - X asr arab geograflarining asarlarida butun islom olami, ya'ni Abbosiylar xalifaligi odatda 22 mintaqaga bo'lingan bo'lib, ularning sharqdagi eng oxirgilari Xuroson va Movarounnahr edi.

Beshinchidan, Somoniylar faqat Abbosiy xalifalari tomonidan oldindan belgilab berilgan ichki siyosatni yuritishda mustaqil edilar. Tashqi siyosiy aloqalarga kelsak, ular faqat Bag'dod bilan kelishilgan holda va xalifalik manfaatlarini himoya qilgan holda amalga oshirilgan. Ma'lumki, Somoniylarning xorijiy davlatlar bilan tashqi siyosiy aloqalari deyarli bo'lmagan. Masalan, O'rta Osiyodan Xitoy imperatori saroyiga tashrif buyurgan so'nggi elchilik 761-yilda Farg'ona hukmdori tomonidan yuborilgan. Shundan so'ng Xitoy yilnomalarida bu mintaqadan bironta ham elchining kelgani qayd etilmagan [Шефеп 1981, 583-585]. Somoniylar xorijiy mamlakatlar, xususan, Volga bo'yidagi davlatlar bilan yaqin savdo-iqtisodiy aloqalarga ega bo'lgan. Shuning uchun 309/921-22-yilda xalifa al-Muqtadir tomonidan Volga bo'yiga yuborilgan elchilar Kavkaz orqali eng yaqin yo'ldan yurmasdan, Buxoro va Xorazm

orqali yurganlar [Бартольд 1963a, 124]. Biroq bu savdo aloqalari Abbosiy xalifaligining davlat manfaatlariga xizmat qilmagan, uning tashqi siyosatdagi asosiy maqsadi esa islom dinini yoyish bo'lgan. Bu savdo aloqalarining imkoniyatlaridan qo'shni mamlakatlarda faol misslonerlik faoliyati olib borgan nasroniylar va moniylar ko'proq foyda ko'rganlar [Бартольд 1963a, 125]. Somoniylar islom dini keng tarqalmagan xorijiy davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarni o'rnatishga hatto intilmaganlar, ular Abbosiy xalifalarining diplomatik aloqalarida faqat vositachi vazifasini o'taganlar. Mahalliy hukmdorlar, shu jumladan, Somoniylarning boshqa davlatlar bilan qilgan tashqi aloqalari, asosan, bosqinchilik urushlari olib borish, belgilangan o'lponni qabul qilib olish va islomni yoyishdan iborat bo'lgan. Bu kam sonli aloqalarni Abbosiy xalifalarining boshqa davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan to'laqonli va teng huquqli diplomatik munosabatlari bilan hech ham taqqoslab bo'lmaydi.¹

Oltinchidan. Somoniylar har yili Abbosiy xalifalariga belgilangan soliq va o'lponlarni to'lab turganlar. L. Treadwell: "Tohiriylardan farqli ravishda X asrda Somoniylar xalifalarga muntazam ravishda o'lpon yubormaganlar" deb yozadi [Treadwell 1991, 271 – 272]. Biroq Somoniylar Tohiriylardan farqli o'laroq Abbosiy xalifaligining sharqiy chegarasini qo'riqlab, "kofir turklar"ga qarshi "muqaddas urushlar" olib borganlar. Shuning uchun o'sha davrda Movarounnahrni *bilad as-sagr* (بلاد السعير), ya'ni "chegara o'lkasi" deb ataganlar X asr o'rtalarida Xuroson va Movarounnahrda yig'ilgan soliqlarning umumiy miqdori 40 million dirhamdan ortiq edi [Ibn Haukal: 469]. Xalifalar soliqlarning katta qismini Somoniylarga qurol-yarog' sotib olishga va harbiy yurishlarga sarflashlari uchun qoldirgan. Undan tashqari Movarounnahr Arab xalifaligining markaziy qismiga asosiy qul yetkazib beruvchi edi. Xuroson va Movarounnahr uchun belgilangan soliq Bag'dodga har yili 1012 ta qul yetkazib berishni o'z ichiga olgan. Somoniylar hokimiyati qullar savdosini nazorat qilib, Amudaryo kechuvidan o'tayotganda har bir turk quli uchun 70 dan 100 dirhamgacha boj belgilagan edi [al-Moqaddasi 340]. Somoniylar boshchiligidagi "islom uchun kurashuvchi" (*al-g'oziy*) lar qo'shinlarining "kofir" turklarga qarshi olib borgan "muqaddas" urushlarning asosiy maqsadi ham

¹Masalan, xalifa al-Muqtadir bi-lloh huzuriga kelgan Rum hukmdorining elchisini qabul qilish marosimi bilan [Хитан ас-Саби: 26] yoki al-Hind, ar-Rum va as-Sin podshohlarining xalifalar Horun ar-Rashid, al-Ma'mun, ar-Radi, al-Mustansir va hatto vazir al-Hasan ibn Sahlg'a yuborgan sovg'alari bilan [Ibn az-Zubayr: 9, 20, 21 – 22, 28, 32, 60, 74, 76].

aynan qullarni qo'lga kiritish va keyinchalik ularni Bag'dodga yetkazish edi [Frye 1975, 203-204]. Qolaversa, xalifalar, kerak bo'lganda, xalifalikka qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon va isyonlarni bostirishda Somoniylarning kuchli qo'shiniga umid bog'lashlari mumkin edi. O'z navbatida, Somoniylar ham o'zlariga qarashli viloyatlarning hukmdorlariga nisbatan unchalik talabchan emas edilar. Masalan, Farg'ona, Xorazm, Xuttalon, Guzganon, Garchiston va Sijiston hukmdorlari deyarli Somoniylardan mustaqil bo'lib, ularga soliq o'rniga sovg'a-salomlar yuborar edilar [Hermatov 1977, 127]. Isfijob hukmdorlari har yili Somoniylarga "4 danik va bir supurgi bilan birga sovg'alar yuborar edilar", as-Sag'oniyon hukmdorlari esa arziyas miqdordagi ramziy soliq to'lar edilar [al-Moqaddasi 340]. Biroq, bunday holat ularning markaziy hokimiyatdan butunlay mustaqil bo'lganligini anglatmaydi.

Yettinchidan. Somoniylar yangi fors tili (forsiy) va fors tilidagi adabiyotni qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar-da, arab tili davlat tili bo'lib qolgan. Bag'doddagi xalifalar va boshqa hukmdorlar bilan barcha rasmiy yozishmalar faqat arab tilida olib borilgan [Bosworth 1978, 61]. Yozma rasmiy arab tili Xuroson arablarining tili bo'lib, bu til Qur'oni Karim uslubida va Makkadagi Quraysh qabilasining lahjasi asosida qurilgan [al-Moqaddasi 32]. Abbosiylar davrida Kufa va Basrada shakllangan va birinchisidan biroz farq qiladigan og'zaki rasmiy arab tili ham mavjud edi. Bundan tashqari, turli arab lahjalari ham ishlatilgan [60, 131]. Somoniylar davridagi she'riyat ham asosan arabcha [as-Saolibi; Абдуллаев 1984; Bosworth 1978, 69]² va qisman ikki tili edi, va, albatta, fors tilidan arab tiliga tarjima qilinar edi.³

O'rta Osiyolik shoirlar va olimlar hadislarini ham she'rga o'girganlar. Juma namozi oldidan o'qiladigan xutbalari ham faqat arab tilida o'qilgan. Arab tili nafaqat davlat yozishmalarida, balki diniy va huquqiy adabiyotlarda, ilm-fan va falsafada ham qo'llaniladigan yagona til edi [Frye 1967, 70]. Undan din arboblari (*'ulamo*), yozuvchilar (*udaba*) va kotiblar (*kuttab*) keng foydalanilgan [Frye 1970, 131].

Soliq hisob-kitobi, ijara hujjatlari, tilxatlar va majburiyatlar, xalifalik markazi bilan yozishmalar – bularning barchasi arab tilida olib borilgan va yozilgan [Крачковская 1952, 46]. Somoniylarning tangalaridagi barcha yozuvlar faqat arab tilida yozilgan. Aniq

¹Manbalarda Somoniylar hukmdorlarining turli saroylarida xizmat qilgan jami 120 dan ortiq arab tili shoirlarining ismlari ma'lum [as-Saolibi; Ismlar ko'rsatkichi].

²Manbalarda ikki tilda ijod qilgan ber-yo'gi bir necha shoirlarning, shu jumladan, Rudakiyning tarjimai hollari keltirilgan.

fanlarda ham asosan faqat arab tilidan foydalanilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, men shu xulosaga keldimki, O'rta Osiyoda Somoniylar hukmronligini mustaqil suveren davlat sifatida emas, balki Bag'dod tomonidan hokim qilib tayinlangan va nisbatan mustaqil ichki siyosat olib borgan mahalliy hukmdorlar sulolasining hukmronligi sifatida qarash kerak. Ular Abbosiy xalifalari tomonidan berilgan muayyan vakolatlardan foydalangan holda mustaqil iqtisodiy va moliyaviy siyosat olib borganlar. Islom davlati hududlarining g'oyat ulkanligidan xalifalar mintaqalardagi noiblarga katta vakolatlar berishga majbur qilgan edi.

Somoniylar xalifalikning ashaddiy va astoydil tarafdorlari bo'lganlar [Cambridge History I, 144], va o'zlarini doimo Bag'dod xalifalarining sodiq xizmatkorlari deb e'lon qilib, ularga doimo sovg'a-salomlar jo'natib turganlar. Ahmad ibn Ismoil 301/913-yilda "kofir" turklar ustidan qozonilgan navbatdagi g'alabadan so'ng, Bag'doddagi saroyda hamda Fors va Kirmon viloyatlarida mirshablar boshlig'i (*sohib al-shurta*) lavozimlarini egallashga astoydil harakat qilgan. Biroq unga faqat Kirmon viloyatida mirshablik vazifasi uchun yorliq berilgan [Arib 43]. 288/901-yilda uning otasi Ismoil ibn Ahmad Safforiy Amr ibn al-Laysni mag'lub etib, Xurosonni o'z mulkiga qo'shib olgandan so'ng, asirga olingan Amrni xalifa al-Mu'tadid buyrug'iga binoan uning huzuriga jo'natgan va shu tariqa o'zini xalifaning noibi deb tan olgan [Ibn al-Athir VII, 199]. 309/921-22-yilda Somoniylar Jurjonda Daylamiylar qo'zg'olonini bostirgandan so'ng, Nasr ibn Ahmad xalifaning noibi sifatida qatl etilgan qo'zg'olonchi Laylo ibn an-Nu'mon ad-Daylamiyning boshini Bag'dodga yuborgan [Ibn al-Athir VIII, 46]. 329/940-41-yilda ham Ray shahrida Makan ibn Kaly o'ldirilgandan so'ng uning boshi avval Buxoroga, so'ngra Bag'dodga jo'natilgan [Ibn al-Athir VIII, 143]. 330/941-yilda ham Somoniylar boshqa bir qo'zg'olonchini qatl qilganlarida, uning boshini Bag'dodga yuborganlar [Meq 1966, 27].

Somoniylar barcha xatti-harakatlarini Bag'dod bilan kelishgan holda amalga oshirganlar. Hatto Buxorodagi Somoniylar maqbarasining qurilishi Abbosiylarga taqlid qilib, ya'ni xalifa al-Muntasirning onasi (vafoti 248/862-63-y.) unga Qubbat as-Sulabiyya maqbarasini qurdirgandan keyin boshlangan [Пыраченкова 1983, 23].

Somoniylarning unvonlari

Somoniylar sulolasi hukmdorlari Abbosiylar xalifaligi

tarkibiga kirgan Xurosonning noiblari (voliylari) sifatida [al-Istakhri 306, 311]. kamtarona amir (امير) – "buyruq beruvchi" unvoni, shuningdek, kamtarona Maula Amir al-mu'minin ("Mo'minlar amirining mijozi") yoki Vali Amir al-mo'minin ("Mo'minlar amirining noibi") unvoniga ega bo'lganlar [Хилал ас-Саби 76, 84 – 85, 94; as-Sam'ani VII, 12; Гафуров 1987, 92-93]. 334/945-46-yilda shia mazhabidagi eronlik Buvayhiylar Bag'dodni egallab olgandan so'ng 335/946-47-yilda Nuh ibn Nasr o'zining tangalarida sobiq *al-amir* unvoni yonida yangi *al-malik al-mu'ayyad* (الملك المويّد), ya'ni "qo'llab-quvvatlanuvchi hukmdor" degan ma'noni anglatuvchi unvonni yoza boshladi [Bosworth 1962, 214]. Bungacha Somoniylar sulolasi hukmdorlari bunday unvonni ishlatmaganlar, garchi E.Zambaurning yozishicha, shohona *al-malik* (الملك) unvoni ilk bor Nasr ibn Ahmad (250 – 279/864 – 892) tangalarida paydo bo'lgan [Zambaur 1927, 202].

L. Treadwellning yozishicha, Nuh ibn Nasr tangalaridagi *al-muayyad min as-sama'* (الملك المويّد من السماء), ya'ni "Osmon tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi" unvoni «Nuhning Alloh Taoloning noibi maqomiga, shuningdek, "podshoh" maqomiga da'vo qilganligini anglatgan, «qirol». Shunday qilib, ayon bo'ladiki, deb davom etadi L. Treadwell, Nuh 335 hijriy yildayoq Allohning noibi maqomiga da'vo qilgan va xalifaning bunday maqomni egallashini rad etgan» [Тредвел 1999, 91 – 93].

Al-Malik unvoni haqida yana shuni ta'kidlash kerakki, nafaqat tangalarda, balki X asrning ayrim manbalarida ham Somoniylar sulolasiga mansub hukmdorlar Muluk Xuroson (ملوك خراسان) – «Xuroson hukmdorlari» [al-Istakhri 143, 292; Ibn Haukal 468; al-Moqaddasi 260] yoki Malik-i Mashriq (ملك مشرق) – "Sharq hukmdori" deb atalgan [Hudud al-'Alam 112]. Abu Bakr Narshaxiy Nuh ibn Nasrgacha bo'lgan Somoniy hukmdorlari haqida so'z yuritganda, ularning hukmronligini *imorat* (امارت), ya'ni "hukmronlik" so'zini ishlatadi, va faqat Abd al-Malik ibn Nuh (343 – 350/954 – 961)dan boshlab *mulk* (ملك), ya'ni "hukmronlik" so'zini ishlatadi [Наршахи: 89]. Abd al-Malik ibn Nuh, boshqa manbalarga ko'ra, *al-amir al-muayyad* [Гафуров 1987, 145]¹ yoki *al-malik al-muayyad* [Zambaur 1927, 202], Nuh ibn Nasr esa *al-amir al-hamid* yoki *al-malik al-hamid* deb atalgan. Bizningcha, *al-muayyad* (المويّد) ta'riflovchi so'zini *al-muayyid* (المويّد)² deb ham o'qish mumkin, bu esa

¹ Narshaxiyning "Ta'rix-i Buxoro" asarida – Amir-i Roshid [ан-Наршахи, 90].

² Agar bu so'z *min as-sama'* (من السماء) – "osmondan", "yuqoridan" qo'shimchasisiz bo'lsa.

arabchada "qo'llab-quvvatlovchi", "hamdardlik bildiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Bu ta'rif Somoniyilarning Bag'dodni egallagan Buvayhiylar tomonidan o'z saroyida asirga olingan Abbosiylarga bo'lgan munosabatini ifodalashi mumkin. Binobarin, 'Abd al-Malik shia Buvayhiylariga qarshi kurashda Nuhning vorisi hisoblangan.

Lekin *al-amir* va *al-malik* unvonlari Nasr II ibn Ahmad, Nuh I ibn Nasr, Abd al-Malik I ibn Nuh, Mansur I ibn Nuh va Nuh II ibn Mansur ismlariga qo'shib barobar ishlatilgan [Zambaur 1927, 202]. Abd al-Malik ibn Nuh, shuningdek, al-Malik al-Muvaffaq, Mansur ibn Nuh – al-Malik al-Muzaffar va al-Malik al-Muazzam, Nuh ibn Mansur esa al-Malik al-Mansur unvonlariga ham ega bo'lgan [Boswort 1962, 214].

Shohona *al-malik* unvonining Somoniyilarning tangalarida yozilishi, *birinchidan*, ularning Eron Buvayhiylarining qilmishlariga munosabatini ifodalashi mumkin edi, chunki taxminan shu vaqtda Buvayhiylarning tangalarida *shohanshoh* (shohlar shohi) va *al-malik al-muazzam* (buyuk hukmdor) shohona unvonlari yozila boshlangan edi [Ibn az-Zubayr: 78]. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, al-Amir ar-Rizo [Босворт 1971, 145] yoki al-Amir ar-Rashid [Наршахи 90] faxriy unvonlari bilan mashhur bo'lgan Nuh ibn Mansur o'zini *shohanshoh* deb ham atagan [Смисет-намэ 158].

Ikkinchidan, *al-malik* unvoni so'zning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosida shoh unvonini anglatmasaligi, balki *muluk at-tavo'if* (ملوك الطوائف) – "mahalliy hukmdorlar" yoki *muluk al-atraf* (ملوك الاطراف) – "viloyatlar hukmdorlari" unvonini aks ettirishi mumkin edi. Chunki xalifalar xalifalikning chekka hududlaridagi mahalliy hukmdorlarni ba'zan shunday atar edilar. Ko'pincha bu hududlarning islomgacha bo'lgan hukmdorlari shunday nom bilan atalgan [al-Jakubi 294], lekin ba'zan islom dinini qabul qilgan mahalliy hukmdorlar ham shunday deb atalgan. Masalan, Chag'anyon, Xuttalon, Balx amirlari, G'uzganon hukmdorlari (*muluk*), Farg'ona dehqonlari va boshqalar shunday atalganlar [Hudud al-'Alam, 105-106, 114-116]. *Malik* unvoniga ega bo'lgan mahalliy hukmdorlar tangalarda o'z nomlaridan tashqari oliy hukmdorlar, ya'ni xalifalarning ismlari va unvonlarini ham ko'rsatganlar [Ходжаниязов 1977, 45]. 225/840-yilda Bag'doddagi xalifaning saroyida Afshin ustidan o'tkazilgan hukm jarayonida ishtirok etgan islomgacha bo'lgan Sug'd hukmdori Gurakning avlodi "Sug'd dehqoni va Sug'd hukmdorlari (*muluk*) dan biri" deb atalgan" [at-Tabari III, 1311; Смирнова 1969, 70], aslida esa u hech qanday siyosiy hokimiyat va kuchga ega emas edi. Ma'lumki, xalifaning o'zi arab bo'lmagan ayrim hukmdorlarga

islomgacha bo'lgan shohona unvonlarni bergan. Masalan, xalifa al-Mu'tasim bi-lloh Haydar ibn Kavusga *afshin* unvonini bergan, bu esa islomdan oldingi Ushrushona hukmdorlarining shohona unvoni edi; Xalifa ar-Roziy bi-lloh Muhammad ibn Tug'ujga *ixshid* unvonini bergan, bu esa islomgacha bo'lgan Farg'ona hukmdorlarining shohona unvoni edi [Хилал ас-Саби, 90]. Chunki ularning ikkalasi ham islomgacha hukm surgan mazkur podshohlar xonadonlarining avlodi edi.

Somoniylar *'ummal Xuroson* (عمال خراسان) – "Xuroson soliqchilari". O'rta Osiyoning chegara hududlarida ularga qarashli mahalliy turk hukmdorlari esa *muluk al-atraf* (ملوك الاطراف) – "viloyat hukmdorlari" deb atalgan [Hudud al-'Alam, 102]. G'aznaviylar Sabuktegin, Ismoil va Mahmud o'zlarining kuch-qudrati va ulug'vorligiga qaramay, hukmronliklarining ilk davrida Somoniylarning oliy hokimiyatini tan olib, tangalarida o'zlarini "viloyat hukmdori" deb ataganlar. Bunday hol 389/998-99-yilda Somoniylar hokimiyati ag'darililishiga qadar davom etgan, shundan keyin G'aznaviylar o'zlarini mustaqil deb e'lon qilganlar, va bu voqea Mahmud G'aznaviyning maxsus esdalik tangasini zarb etishi va uning oldingi faxriy unvonlari (al-Amir as-Sayyid Yamin ad-Daula va Amin al-Milla) ga *amir Xuroson* unvonining qo'shilishi bilan belgilangan. Shu bilan birga, 390/999-1000-yilda Nishopurda zarb etilgan dinorda xalifa al-Qodir bi-llohning ismi ham yozilgan [Thomas 1848, 267-386].

Bu ma'lumotlarga asoslanib, shu xulosaga kelishimiz mumkinki, Somoniylarning ismlariga qo'shib yozilgan *al-malik* unvoni podshoh, ya'ni oliy hukmdor hokimiyatiga da'voni emas, balki Somoniylar sulolasining kelib chiqishi podshohlar xonadonidan bo'lganligini bildirgan. Nuh ibn Nasr tangalarida bu unvonning oldingi unvoni yonida paydo bo'lishi uning "mustaqillikka intilishi va oliy hukmdor maqomiga da'vosi" bilan bog'liq emas edi [Тредвелл 1999, 93], aksincha, Bag'dodni egallab olgan va o'zlarining qo'g'irchoq xalifasi al-Muti'li-llohn (334-363/946-974) xalifalik taxtiga o'tqazgan Buvayhiy hukmdorlariga qarshi harakatlari bilan bog'liq edi. 382/992-yilda Somoniylar qo'shinlari tomonidan Bag'dodda hokimiyatni qo'lga olish va Abbosiylarni Buvayhiylar asirigidan ozod qilish maqsadida amalga oshirilgan harbiy yurish ham aynan shu bilan bog'liq edi [Meq 1966, 131].

Boshqacha aytganda, L. Treadwellning Nuh ibn Nasr unvoni haqida aytgan fikri eng oddiy tanqidga ham chiday olmaydi. Birinchidan, bu fikr yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan

tasdiqlanmagan. Ikkinchidan, shunga o'xshash *amir al-umara' al-mu'ayyad min as-sama'* (أمير الأمراء المؤيد من السماء) – "osmondan qo'llab-quvvatlangan amirlar amiri" degan ulug'vor unvon Somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali Simjurining tangalarida ham yozilgan [Bosworth 1962, 215]. Demak, *al-mu'ayyad min as-sama'* (المؤيد من السماء) so'zlari "Allohning yer yuzidagi noibi", ya'ni oliy hokimiyat maqomiga da'voni anglatmaydi. Diniy asosga ega bo'lgan bu so'zlar nafaqat hukmdorlarga, balki ularga tobe bo'lgan amaldorlarga, sufiylar orasida esa ularning ma'naviy ustozlari va pirlariga (*murshid*) nisbatan ham qo'llanishi mumkin edi.

Gap shundaki, dastlab Somoniylar Buvayhiylarning qo'g'irchoq xalifasi al-Muti'li-llohni xalifa sifatida tan olishni istamagan edilar. Shuning uchun Buxoroning 336-346/947-957-yillarda zarb etilgan bir nechta dirhamlarida xalifaning ismi tilga olinmagan. 367-385/977-996-yillarda, yuqori Amudaryo hududlari Somoniylar tasarrufidan chiqib ketgan Badaxshon va Andarob tangalarining bir qanchasida ham xalifaning ismi yo'q [Lowick 1977, 2; Hennequin 1984, 197-221]. Ammo umuman olganda, Movarounnahrda xalifalikda oliy hokimiyatga da'vo qilish u yoqda tursin, Abbosiylarga qarshi hech qanday qarama-qarshilik yo'q edi. Bir qancha tangalardagi *al-mu'ayyad min as-sama'* (المؤيد من السماء) so'zlari xalifa ismining yo'qligi uchun faqat bir o'zini oqlov bo'lib xizmat qilgan, chunki o'sha davrlarda bunday hol isyon ko'tarish bilan barobar edi.

Xalifalikka qilgan yaxshi xizmati va sadoqati uchun Abbosiylar o'z amaldorlari va viloyatlar hukmdorlarini ham sulola (*ad-daula*), ya'ni 'Abbosiylarning "do'sti", "sherigi", "suyanchig'i" yoki "qo'llab-quvvatlovchisi" kabi turli xil faxriy unvonlar va laqablar bilan taqdirlaganlar¹, masalan, – 'Adud ad-Daula, Rukn ad-Daula, Baho' ad-Daula va boshqalar². Tarkibida *ad-daula* so'zi bo'lgan ushbu faxriy unvonlar X asrning ikkinchi yarmidan boshlab muomalaga kirdi va ayniqsa, shia hukmdorlari – Erondagi Buvayhiylar va Misrdagi Fotimiylar orasida keng tarqaldi. Amalda ular Abbosiylar hokimiyatini deyarli inkor qilganlar, bu faxriy unvonlar esa sunniy bo'lgan tobelar nazarida ularning hokimiyatiga qonuniylik tusini berar edi. Somoniylar bunday faxriy unvonlarni olishga intilmaganlar va oddiy *kunya*, ya'ni otasining ismi bilan kifoyalanganlar. Ular tirikligida al-Malik al-Mu'ayyad, al-Muvaffaq,

¹Agar bu so'z *min as-sama'* (من السماء) – "osmondan", "yuqoridan" qo'shimchasisiz bo'lsa.

²Tarkibida *ad-daula* so'zi mavjud bo'lgan birinchi faxriy unvon ilk bor xalifa al-Muktafiy tomonidan kiritilgan [Худяков 1989, 89]. Bu faxriy unvonlar tarkibidagi *ad-daula* so'zining ma'nosi haqida qarang: Rozenthal 1968, 89.

al-Mansur, al-Mu'azzam, al-Muntasir [Бирюни, 150], vafotidan keyin esa: al-Amir al-'Odil (Adolatli amir), al-Amir as-Sa'id (Baxtli amir), al-Amir al-Hamid (Shon-sharafli amir), al-Amir ar-Rashid (Oqilona amir), al-Amir as-Sadid (To'g'ri so'zlovchi va amal qiluvchi amir) va h.k. deb atalganlar [Meq 1966, 131]. Lekin ular xalifalarga taqlid qilib, o'z sarkardalariga Nosir ad-Daula, 'Imod ad-Daula, Husam ad-Daula, Sayf ad-Daula, Sinan ad-Daula, Mu'in ad-Daula kabi faxriy laqablar berganlar [Бирюни, 150]. Xususan, ularning turk harbiy lashkarboshilari *ad-daula* faxriy unvonlariga ega bo'lgan, masalan, *sipohsalor* Toshi Hojib Husam ad-Daula va Sayf ad-Daula faxriy unvonlariga [Гардизи, 81], Amir Fo'iq al-Xossa – 'Amid ad-Daula faxriy unvoniga [al-Nasafi 1991, 527; as-Sam'ani V, 21], Amir Begtuzun – Sinan ad-Daula faxriy unvoniga [Бирюни, 149], *sipohsalor* Abu-Hasan Simjuriy Nosir ad-Daula faxriy unvoniga, uning o'g'li Abu 'Ali Simjuriy 'Imod ad-Daula faxriy unvoniga, Muxtojidlar sulolasiga mansub Abu Muzaffar Ahmad ibn Muhammad Faxr ad-Daula faxriy unvoniga ega bo'lgan [Bosworth 1962, 215]. Bu faxriy unvonlarning ba'zilarini ularga kofirlar yoki qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda alohida xizmatlari uchun xalifaning o'zi bergan. Lekin bir narsa aniq – ikkala holatda ham *ad-daula* so'zi Arab xalifaligi va Abbosiylar sulolasini anglatgan.

Xulosa

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Somoniylar ichki iqtisodiy va moliyaviy siyosatni yuritishda mustaqil bo'lgan bo'lsalar-da, ularning hukmronligi xalifalar tomonidan ularga berilgan ma'lum huquqlar bilan qat'iy chegaralangan degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Somoniylar har yili Abbosiy xalifalariga barcha soliqlar va o'lponlarni to'lab, belgilangan vaqtda muntazam ravishda Bag'dodga jo'natib turganlar. Somoniylarga qarashli yerlarning Abbosiylar xalifaligining qolgan qismi bilan chegaralari davlat chegarasi emas, balki ma'muriy chegara hisoblangan. Somoniylarga qarashli yerlarning tashqi chegaralari Abbosiylar xalifaligining tashqi chegaralari bilan mos kelgan. Somoniylarning tashqi siyosati faqat Abbosiylar xalifaligi manfaatlarini ko'zlab, Bag'dod bilan kelishilgan holda olib borilgan. Somoniylarning hukmronligi xalifaning ularni Xuroson va Movarounnahrda hokim etib tayinlash to'g'risidagi maxsus yorlig'i bo'lgan taqdirdagina qonuniy hisoblangan. Somoniylar xalifalarning oliy hokimiyatini rasman tan olib, juma namozi oldidan o'qiladigan xutbalarda va tangalardagi yozuvlarda ularning ismlarini oliy hukmdor sifatida

